

O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlari

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, uning sarhadlari dahlsizligini ta'minlash bo'yicha taktik va strategik vazifalarni samarali hal etishga qodir bo'lgan, zamonaviy, harakatchan, har tomonlama yaxshi qurollangan armiyani tashkil etish bo'yicha o'zining ko'lami va miqyosiga ko'ra ulkan ishlar tizimli va bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirildi. 2018 yilning 9 yanvarida — O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mudofaa doktrinasini qabul qilish orqali mamlakat mudofaa siyosatining shaffofligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

2017-2021 yillar uchun Harakatlar strategiyasi dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan ushbu doktrinada mamlakatimizning harbiy qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish masalalari bo'yicha asosiy yo'nalish va zamonaviy yondashuvlar aks ettirilgan. Mudofaa doktrinasini, xavfsizlik va mudofaa sohasida boshqa chet davlatlar bilan samarali harbiy-siyosiy munosabatlar va hamkorlik qilish uchun tashkiliy-huquqiy sharoit yaratadi. Ushbu hujjat oshkora xususiyatga ega bo'lib, shunga o'xshash konseptual hujjatlar qabul qilish borasidagi chet el tajribasiga mos keladi. Mudofaa doktrinasini O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqligi, yaqin qo'shnilarimiz — Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xalqlarimizning tarixi, madaniyati, an'analari, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplarga asoslangan: boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni daf etish hollari mustasno; xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har qanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o'zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o'zida saqlab qolish; mudofaaning yetarli darajada bo'lishi; harbiy qurilishning zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga monand bo'lishi; yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish; Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi zona to'g'risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik; o'z hududida chet el harbiy bazalari va ob'ektlarining joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik; Qurolli Kuchlarning xorijdagi tinchlik o'rnatish bilan bog'liq operatsiyalarda va harbiy mojaralarda ishtirok etmasligi; xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga va o'ziga xos madaniy urf-odatlariga tayanish.

O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar siyosatni olib borar ekan, harbiy mojarolarning oldini olishda faol ishtirok etishni ustuvor vazifalardan biri deb hisoblaydi. O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: a) milliy darajada: davlat harbiy tashkilotining o'z maqsadiga muvofiq harakat qilishga shayligini saqlab turish; o'z mudofaa sanoati kompleksini va uning ilmiy-ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish; ijtimoiy institutlarga va hokimiyat organlariga bo'lgan ishonchga putur yetkazishga, shuningdek davlatning ichki ishlariga aralashish maqsadida aholining ommaviy ongiga axborot-mafkuraviy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan ilg'or texnologik yechimlarni va boshqa yechimlarni qo'llash; b) mintaqaviy darajada: mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishga ko'maklashish, transchegaraviy oqarsuv resurslaridan foydalanish masalalarini hal etish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini tugallash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarga hamda tabiiy va texnogen xususiyatdagi transchegaraviy tahdidlarga e'tibor qaratish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlarni kurish; mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tashqi hamda ichki tahdidlar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va ularni

neytrallashtirish, ekstremizm, terrorizm, uyushgan hamda transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro hamfikrlik va amaliy hamkorlikni mustahkamlash; mintaqa davlatlari o'rtasida harbiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish, ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash; v) xalkaro darajada: Birlashgan Millatlar Tashkilotining, boshqa xalqaro tashkilotlar va institutlarning xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarida ishtirok etish; O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining uzoq muddatli manfaatlaridan kelib chiqqan holda manfaatdor mamlakatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish va saqlab turish hamda davlatlararo o'zaro manfaatli, mustahkam aloqalarni yo'lga quyish; ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik borasidagi global sa'y-harakatlarga ko'maklashish; ekstremizm va xalqaro terrorizm ko'rinishlarining oldini olish va ularga chek qo'yish; xalqaro harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish. Amalga oshirilgan va oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar samarasi o'laroq Qurollı Kuchlarimiz bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevov ta'biri bilan aytganda, "jamiyatimizning ajralmas bir qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining kafolatiga, harbiy xizmatchilar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylanmoqda".

Shu bilan birga, mintaqamiz va butunjahondagi bugungi murakkab, tez o'zgarayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, ayniqsa, Afg'onistondagi istiqboli ancha mavhum bo'lgan hozirgi holat bilan bog'lik tarzda xavfsizlikka qarshi real va ehtimol tutilayotgan xavf-xatarlarning kuchayib, narkoagressiya, xalqaro terrorizm, ekstremizm va boshqa tahdidlarning miqyosi tobora kengayib borayotgani Qurollı Kuchlarimizning harbiy tayyorgarligi va jangovar qobiliyatini muttasil oshirish, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, uning davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlash borasidagi choralarni yanada kuchaytirishni taqozo etmokda.

Shavkat Mirziyoevning Prezident xuzuridagi Xavfsizlik kengashining 2018 yilning 10 yanvarida bo'lib o'tgan kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida mamlakatimiz Qurollı Kuchlari tizimidagi islohatlarning istiqbollriga to'xtalib, kuyidagilarni alohida ta'kidladi: "Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurollı to'qnashuvlar hamon davom etmoqda. Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Qurollı Kuchlarimizni yanada isloh qilish, uning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini yuksaltirish buyicha kelgusida amalga oshiradigan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur".

O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoni tashabbusi bilan "Temurbek lar maktabi" harbiy akademik litseylarining tashkil etilishi Qurollı Kuchlarimizni salohiyatli askar va ofitser kadrlar bilan ta'minlash qatorida, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o'qitishda muhim o'ringa ega bo'ladi. Ayniqsa, Qurollı Kuchlar tizimida O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilotlari tashkil etilganligi esa, yosh harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar jarayoniga jalb etishda, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, amalga oshirilgan bunday muhim ishlar natijasida armiya mardlik va matonat, sadoqat maktabiga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, xalqimizning tinchligi va xavfsizligi, sarhadlarimiz dahlsizligining mustahkam qalqoni bo'lmish armiyamiz harjihatdan qudratli, qurol-yarog' va harbiy mahorat borasida hech kimdan kam bo'lmasligi lozim.